UDK: 332.14:502.131.1(575.1)

MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Aminboyeva Fatima Rajabboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchi-stajyori
https://doi.org/10.5281/zenodo.22957209

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtiruvchi iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazm viloyati misolida energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va suv resurslarini boshqarish sohalaridagi mavjud holat statistik va institutsional jihatdan o‘rganilib, yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish to‘siqlari aniqlangan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы механизмов экономического стимулирования, ускоряющих переход к зеленой экономике на региональном уровне. Также на примере Хорезмской области статистически и институционально изучается текущая ситуация в областях энергоэффективности, возобновляемых источников энергии и управления водными ресурсами, а также выявляются препятствия для стимулирования зеленых инвестиций.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of economic incentive mechanisms that accelerate the transition to a green economy at the regional level. Furthermore, using the Khorezm region as a case study, the current situation regarding energy efficiency, renewable energy sources, and water resource management is examined from statistical and institutional perspectives, and barriers to incentivizing green investments are identified.*

Kalit so‘zlar. *Yashil iqtisodiyot, rag‘batlantirish mexanizmlari, mintaqaviy rivojlanish, Xorazm viloyati, qayta tiklanuvchi energiya, yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish.*

Ключевые слова. *Зеленая экономика, механизмы стимулирования, региональное развитие, Хорезмская область, возобновляемая энергия, зеленые инвестиции, государственно-частное партнерство, устойчивое развитие.*

Key words. *Green economy, incentive mechanisms, regional development, Khorezm region, renewable energy, green investments, public-private partnership, sustainable development.*

Kirish. Jahon iqtisodiyotida iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va ekologik muvozanatning izdan chiqishi “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni ob’ektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Xususan, BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma’lumotlariga ko‘ra, jahon bo‘yicha yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi so‘nggi o‘n yillikda bir necha barobar oshgan. Bu esa yashil iqtisodiyotning ekologik va iqtisodiy rivojlanish omili sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi [1]. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Yashil taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakat iqtisodiyotini 2030-yilga qadar barqaror, resurs tejamkor va ekologik toza modelga o‘tkazishni ko‘zda tutadi [2]. Strategiyada energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va shahar xo‘jaligi sohalarida yashil texnologiyalarni joriy etish va yashil

moliyalashtirish tizimini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur umummilliy jarayonda mintaqaviy yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Chunki, har bir hudud o‘ziga xos tabiiy-iqtisodiy sharoitga ega bo‘lib, umumiy mexanizmlarning samaradorligi mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishga bog‘liq bo‘ladi. Shu holatda Xorazm viloyati Orolbo‘yi ekologik inqiroz zonasiga yaqinligi, suv resurslari tanqisligi, tuproq sho‘rlanishi va qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi yuqori ulushi bilan tavsiflanadigan hudud sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish masalasida o‘ziga xos muammo va imkoniyatlarga ega [3]. Bu jihat ekologik vaziyatning murakkabligi yashil texnologiyalarni tezkor joriy etishni taqozo etsa-da, ikkinchi tomondan esa viloyatning yuqori quyosh radiatsiyasi ko‘rsatkichlari qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun qulay tabiiy shart-sharoit yaratadi. Shunga qaramay, amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, mintaqada yashil investitsiyalarni jalb qilish va rag‘batlantirishning aniq, tizimli mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan, mavjud imtiyoz va qo‘llab-quvvatlash choralari bir-biridan ajralgan holda institutsional muvofiqlashtiruvsiz amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtiruvchi iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar amalga oshirilib, bu holatda yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi xalqaro ilmiy adabiyotda turlicha talqin etiladi. Xususan, UNEP tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, yashil iqtisodiyot - atrof-muhit xavf-xatarlarini va ekologik tanqislikni kamaytirgan holda inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshiruvchi iqtisodiy tizimdir [4]. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) esa yashil o‘sish tushunchasini iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bog‘liqlikda talqin qiladi. Ya’ni, ushbu tushuncha bir vaqtda tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayoni sifatida talqin qilinadi [5]. Yana bir tadqiqotlar yo‘nalishi rivojlangan davlatlar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, ushbu davlatlar tajribasi yashil iqtisodiyotga o‘tishni moliyaviy rag‘batlantirish choralari, soliq-budjet siyosati vositalari va yashil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish yo‘nalishlarini asoslaydi [6].

Mahalliy ilmiy adabiyotda esa yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning energetika va qishloq xo‘jaligi sohalaridagi tatbiqi masalalari yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning zarurligi mamlakat energetika sektorining qazib olinadigan yoqilg‘ilarga yuqori darajada qaramligi, iqlim o‘zgarishi jarayonlarining kuchayishi va suv resurslari tanqisligi bilan asoslanadi [7]. Ushbu tadqiqotlar turli yo‘nalishlar va davlatlar bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Orolbo‘yi mintaqasiga xos ekologik-iqtisodiy vaziyatning o‘ziga xosligini chuqur tahlil qilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Maqolada Xorazm viloyati mintaqasida yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, SWOT-tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantiruvchi mavjud mexanizmlar tahlili orqali quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko‘rsatadi:

- institutsional tarqoqlik muammosi. Yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vakolatlar bir nechta tashkilot sifatida viloyat hokimligi, energetika vazirligining hududiy bo‘linmasi, statistika boshqarmasi va boshqalar o‘rtasida bo‘lingan bo‘lib, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona organ mavjud emas. Ushbu holat rag‘batlantirish choralarining

samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Chunki, tadbirkorlar turli instansiyalarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

- moliyaviy rag‘batlantirish choralarini amaliy qo‘llanilish darajasining pastligi. Mahalliy tadbirkorlar uchun yashil texnologiyalarga, ya’ni tomchilatib sug‘orish tizimlari va quyosh panellari investitsiya kiritishda soliq imtiyozlari mavjud bo‘lsa-da, ularning amalda qo‘llanilishi cheklangan. Buning asosiy sabablari bo‘lib axborot yetishmasligi, murakkab byurokratik tartib-taomillar va imtiyozlarni rasmiylashtirish jarayonining shaffof emasligi hisoblanadi.

- qayta tiklanuvchi energetika salohiyatidan to‘liq foydalanilmasligi. Viloyatning quyosh radiatsiyasi ko‘rsatkichlari mamlakat bo‘yicha yuqori darajada bo‘lishiga qaramay, xususiy sektor ishtirokidagi yirik quyosh elektr stansiyalari loyihalari hali boshlang‘ich bosqichda qolmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha standart shartnoma modellarining yo‘qligi va xorijiy investorlar uchun yetarli huquqiy kafolatlarning mavjud emasligi sanaladi.

- suv resurslaridan foydalanish samaradorligining past darajadaligi. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish sur’ati sekin hisoblanadi. Bu esa yashil qishloq xo‘jaligiga o‘tish jarayonini sekinlashtirib, mavjud suv tanqisligi muammosini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlil so‘nggi yillarda ijobiy tendensiyalarni qayd etadi. Unga ko‘ra, xalqaro moliya institutlari va grant mablag‘lari hisobidan viloyatda bir qator pilot loyihalar sifatida suv tejovchi sug‘orish tizimlarini joriy etish va kichik quyosh elektr stansiyalarini qurish bevosita amalga oshirilmoqda [8]. Mazkur holat mintaqada yashil investitsiyalarga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganidan va rag‘batlantirish mexanizmini tizimli takomillashtirish uchun qulay zaminning shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu borada aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini quyidagicha asoslanadi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish mexanizmlarining holati va takomillashtirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mavjud mexanizm	Asosiy muammolar	Takomillashtirish usuli
Energiya samaradorligi	Qisman soliq imtiyozlari	Murakkab rasmiylashtirish tartibi	«Bir oyna» tizimi orqali soddalashtirish
Qayta tiklanuvchi energetika	Pilot grant loyihalari	Xususiy investorlar uchun kafolatlar yo‘qligi	Davlat-xususiy sheriklik standart shartnoma modeli
Suv resurslarini boshqarish	Davlat subsidiyalari	Subsidiya hajmi va qamrovi yetarli emasligi	Fermerlar uchun kengaytirilgan subsidiya dasturi
Institutsional muvofiqlashtirish	Vakolatlar	Yagona mas’ul organ yo‘qligi	Mintaqaviy muvofiqlashtiruvchi kengash

Ushbu 1-jadvalda Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish mexanizmlarining amaldagi holati, mavjud muammolari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Jumladan, energiya samaradorligi sohasida mavjud soliq imtiyozlarini qo‘llash jarayonini «bir oyna» tizimi orqali soddalashtirish, qayta tiklanuvchi energetikada xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun davlat-xususiy sheriklikning standart shartnoma modelini joriy etish maqsadga muvofiq. Suv resurslarini boshqarishda davlat subsidiyalarining hajmi va qamrovini

kengaytirish, ayniqsa fermer xo‘jaliklari uchun maqsadli subsidiya dasturlarini takomillashtirish yashil texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini oshiradi.

Shuningdek, institutsional muvofiqlashtirishda vakolatlarning bir nechta tashkilot o‘rtasida taqsimlanganligi va yagona mas’ul organning mavjud emasligi tizimli boshqaruvni murakkablashtirmoqda. Shu bois, mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyot loyihalarini muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish, uning vakolatlari, mas’uliyati va monitoring vazifalarini aniq belgilash taklif etiladi.

Xulosa. Taklif etilgan mexanizmlar Xorazm viloyatining tabiiy-iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga, ekologik yukni kamaytirishga va xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Ammo, bu yo‘nalishda taklif etilgan mexanizmning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Mazkur mexanizmlarning takomillashtirilishi Xorazm viloyatida energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish, xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ekologik barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu bo‘yicha Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- viloyat hokimligi huzurida yashil loyihalarni muvofiqlashtiruvchi yagona mintaqaviy kengashni tashkil etish;
- kichik va o‘rta biznes vakillari uchun yashil texnologiyalarga investitsiya kiritishda soliq imtiyozlarini olish tartibini soddalashtirish;
- xususiy sektorni qayta tiklanuvchi energetika loyihalariga jalb qilish maqsadida davlat-xususiy sheriklik shartnomalarining standart modellarini ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etuvchi fermer xo‘jaliklari uchun subsidiyalash tizimini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNEP (United Nations Environment Programme). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. — Nairobi, 2011.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Yashil taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari.
4. Hakimov N.H., Ahmedov O.M., Abdumalikov A.A., Sharipova Z.B. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: TDIU, 2023.
5. OECD. Towards Green Growth: A Summary for Policy Makers. - Paris, 2011.
6. Ergasheva Sh. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari: xorijiy tajriba tahlili. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2024, №3.
7. Jahon banki. O‘zbekiston bo‘yicha yashil rivojlanish va iqlimga moslashuv dasturlari hisobotlari. - World Bank Group, 2022–2024.
8. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). Central Asia Regional Environmental and Green Investment Outlook. - Manila, 2023.